BUXORO VILOYATI ROMITAN TUMANI HOKIMINING QARORI

201000, Romitan tumani, Buxoro ko'chasi, 3-uy, tel: (65) 55-2-14-45, romitan.t@exat.uz

2022 - yil 21 - dekabr 583-2-40-Q/22 Romitan tuman hokimligi

Tumanda 2023 yilda transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida

O’zbekistan Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-martdagi 125-sonli qarori bilan tasdiqlangan Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomi ijrosini ta’minlash maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6-moddasiga asosan

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Tuman hududida joylashgan barcha yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalari O’zbekistan Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-martdagi 125-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi nizom talablari asosida majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilsin.

2. Majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish bo‘yicha tuman komissiyasining tarkibi 1-ilovaga, texnik ko‘rikdan o‘tkazish jadvali 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Romitan tuman hokimining 2022-yil 28-dekabrdagi “Tuman hududidagi yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli avtomototransport vositalari va ularning tirkamalarini majburiy texnik ko'rikdan o'tkazish to'g'risida”gi 233-2-40-Q/21 - sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari A.Shodiev zimmasiga yuklatilsin.

5. Mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Tuman hokimi **Barnoyev U. I.**

Romitan tuman hokimining
2022 yil 21 dekabrdagi
583-2-40-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Romitan tumani hududida 2022 yil transport vositalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazish komissiyasi

T A R K I B I

R.Sultonov.	tuman IIB yo‘l harakati xavfsizligi bo‘linmasi, avtomototransport vositalarining texnik holati va ulardan foydalanishni nazorat etish bo‘linmasi boshlig‘I komissiya raisi

A ‘ Z O L A R I

Lavozimiga ro’ra.	tuman ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish inspeksiyasi boshlig‘i.
M.Hojiyev.	tuman “Vatanparvar” tashkiloti raisi.
Lavozimiga ro’ra	O’zbekiston avtomobil transporti agentligi Buxoro viloyat boshqarmasi.
Lavozimiga ro’ra	Tuman mudofaa

	ishlar bo‘limi texnik xodimi.
Lavozimiga ro’ra	tuman IIB YHXB xodimi.